



# “TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

## ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo‘nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta‘lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e‘lon qilinadi.



**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY  
JURNALI**

**Bosh muharrir:**  
Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**  
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

**Dizayner:**  
Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba  
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligining  
2023-yil 1-martdagi  
№ 066379- raqamli guvohnomasi  
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri  
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:  
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8  
"Times New Roman" garnitiruasi.  
Ofset bosma.  
Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i: 11.  
Adadi 10 nusxa.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan  
<https://scientific.tues.uz>  
web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**  
Surxondaryo viloyati,  
Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. eshbolta\_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. navruza\_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. nurillo\_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. muxiddin\_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy  
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,  
Termiz, O'zbekiston. oltiboy\_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. maqsuda\_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena\_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv\_urolova@tues.uz

# MUNDARIJA

## **G. E. TURAYEVA**

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

## **G.T. JUMAYEVA**

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

## **O.Ch.XOLOV**

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

## **N.M. SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

## **B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV**

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

## **M.Y.MADIEVA**

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

## **S.Q. ESHBOYEVA**

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

## **N.N. SHODIYEVA**

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

## **K.Sh.OLTIBOYEVA**

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

## **U.A. TASHBAYEVA**

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

## **M.Y.MADIEVA**

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

## **R.D. NORQOBILOVA**

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

## **G'.A. MAMARAJABOV**

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

## **F.A. ABDURAZZOQOV**

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

## **A.Ch. QOSIMOV**

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

## **M.X. FAYZULLAYEVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

## **S.A. JABBOROVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

## **F. YORMATOV**

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari .....70

## **R. R. KHAMRAEVA**

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

## **I.H. JUMAYEV**

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

## **N.A. UMAROVA**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

## **I.B. QARSHIYEVA**

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89





Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Jumayev Ilhom Hamroyevich**  
E-mail: ilhom\_jumayev@tues.uz

## “QUTADG‘U BILIG” DOSTONIDA INSONIY NUQSONLARNING BADIY IFODASI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Asarda insoniy fazilatlar, xususan, zakovat, bilim, sabr, saxovat, shukr kabi sifatning tarbiyada o‘rni va bilimsizlik, g‘azab, nafs, yolg‘onchilik kabi nuqsonlardan qanday xalos bo‘lish kerakligi ko‘rsatib berilgan. Maqola shuningdek, asardagi didaktik va falsafiy yondashuvlar orqali insonni kamolotga yetaklovchi omillarni yoritadi.

**Kalit so‘zlar:** Qutadg‘u bilig, insoniy nuqson, zakovat, bilim, sabr, badiiy ifoda, Yusuf Xos Hojib

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется художественное выражение человеческих недостатков в поэме Юсуфа Хоса Ходжиба «Кутадгу билиг». В произведении показано значение человеческих качеств, таких как разум, знания, терпение, щедрость, благодарность, а также способы преодоления недостатков, таких как невежество, гнев, страсть, ложь. Статья также освещает дидактический и философский подход произведения, показывая факторы, ведущие человека к совершенству.

**Ключевые слова:** Кутадгу билиг, человеческие недостатки, разум, знания, терпение, художественное выражение, Юсуф Хос Ходжиб.

### ABSTRACT

This article analyzes the artistic representation of human flaws in Yusuf Khos Hojib's epic “Qutadg‘u Bilig”. The work highlights the role of human virtues such as intellect, knowledge, patience, generosity, and gratitude, as well as ways to overcome flaws like ignorance, anger, desire, and falsehood. The study also examines the didactic and philosophical approaches in the text, revealing factors that guide a person toward moral and intellectual perfection.

**Keywords:** Qutadg‘u Bilig, human flaws, intellect, knowledge, patience, artistic expression, Yusuf Khos Hojib.

**Kirish.** “Qutadg‘u bilig” dostoni insonni axloqiy ta’lim tarbiya olishga undovchi asardir. Bu kitob haqida muallif shunday deydi: “Bu kitob juda azizdir. Chin donishmandlarining masallari bilan yaratilgan, Mochin donishmandlarining ash’orlari bilan tartib berilgan bu kitobni o‘qiguvchi, bu baytlarning ma’nosini chaquvchi (kishi) kitobdan (ham) yaxshi azizroq bo‘ladi”. [4. 49-b] Bu kitob insonni chin ma’noda azizu mo’tabar etishga xizmat qiladi.

“Inson va uning mohiyati masalasi, Qoraxoniylar davrida turli tabaqalar va toifalar zimmasida bo‘lishi kerak bo‘lgan axloqiy, ma’naviy xususiyatlarni tarbiyalash «Qutadg‘u bilig» oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri edi. Umuman, «Qutadg‘u bilig» dagi pand, o‘git, didaktizm qadimiy an’analar zaminida, biroq yangi tarixiy sharoit taqazosiga ko‘ra yuzaga keldi va u o‘zida bu an’analarni yanada takomillashtirib,

didaktika qobig‘ida boshqa hayotiy masalalarni ham singdiradi”. [2.41-bet]

Bu Mashriq maliklari – Mochinlarning beglari, Bilimli, zakovatli, jahonda kishilarning yaxshilari.

Mutlaq bu kitobni olib o‘zlashtirgandirlar,

Xazina ichiga joylab yashirgandirlar.

Biridan- biriga meros qolib,

O‘z(lar)iga olib nodonlarga bermaydilar. [4. 50-bet]

Bu kitob yaratilgan davrdan Mashriqdan Mag‘ribgacha, Chindan Mochingacha ma’lum va mashhur bo‘ladiki, uni o‘qigan maliklar, beglar, bilim va zakovat sohiblari, jahonning barcha yaxshilari uni o‘qib, uqib o‘zlashtirib oladilar. Uning qadri beqiyos ekanligini anglab xazina ichiga yashiradilar. Ajdodlardan avlodlarga bebaho meros sifatida avaylab yetkazadilar. Nodonlar qo‘liga tushib qolishdan va unga shikast

yetishdan saqlaganlar. Ma'lumki, xazinada bebaho dur-u javohirlar, qimmatbaho narsalar saqlangan va qattiq qo'riqlangan. Bu kitob ham qayerga bormasin shu tarzda izzat ehtiromga sazovor bo'lgan. Yuqoridagi fikrlar biroz mubolag'adek tuyilishi mumkin. Ammo kitob mutolasiga kirishgan kitobxon bu fikrlarning qanchalik haqiqat ekanligiga va o'zida insoniy fazilatlarini shakllantirib borayotganiga ishonch hosil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. "“Qutadg'u bilig”da tilga olingan mavzularning qamrovi juda keng. Ammo unda bitta bosh nuqta borki, u butun asardan qizil ip bo'lib o'tadi. Bu inson masalasidir”. [3. 6-bet] Asarning asosiy maqsadi ham insonni insoniy fazilatlariga ega bo'lishga chorlovdir. Inson fazilatlarini esa bu uning jamiyatda o'z o'rnini egallashda, atrofdagilarga qilayotgan muomalasi va xizmatlari orqali aks etadi. Qadimdan ajdodlarimiz farzand tug'ilgan zahoti uning barkamol va yetuk xislat egasi bo'lishiga harakat qilganlar. Bu holat oilada, keyinchalik jamiyatda shakllanib borgan. Yusuf Xos Hojib ham insonning iymon-e'tiqodining to'kis bo'lishi, hayot so'qmoqlaridan qoqilmasdan o'tishi, turmushini ham o'zini ham jamiyat va xalq manfaatini uchun go'zal va o'rnak bo'larli tarzda tashkil etishi uchun bilishi kerak bo'lgan eng zarur fazilat va axloq mezonlarini” Qutadg'u bilig” asarida batafsil bayon etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish jarayonida madaniy-tarixiy, qiyosiy-tarixiy, lingvopoetik tahlil, struktur-funksional, tavsiflash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar . Yusuf Xos Hojib dostonini o'qish jarayonida asarning har bir misrasida insonni komillikka undovchi, uni to'g'rilikka, o'zidan yaxshi nom qoldirishga undovchi falsafiy fikrlarga duch kelamiz.

Bu yañluq aty boldy yañluq ychyn,

Bu yañluq uruldy bu yañluq ychyn. (194)

Mazmuni:

**Bu yangluq [ya'ni inson] nomi yangluq [ya'ni xato] uchun bo'ldi,**

**Bu yangluq [ya'ni xato] uchun u yangluq [ya'ni inson] ataldi.**

Bu misralarda odamzodga yañluq aty (inson oti) yañluq (yanglishgani) uchun berilgan. Shu boisdan inson yañluq (xato qiluvchi) deb nomlangan. Inson yaralibdiki xato va kamchiliklardan holi emasligi har bir davrda o'z isbotini topgan. Qur'oni karimda ham insonning adashishi, yanglishishi haqida oyatlar

nozil qilingan va inson hali ham adashishdan, yanglishishdan hamda o'zidagi kamchiliklardan xalos bo'la olgan emas.

Yañylmaz kishi kim ayu ber menə,

Yañylmysh tımən miñ ayauyın senə.

Biliglig edi az biligsiz ökysh,

Uqushsuz ökysh bil, uqushlug' kəshysh.

Mazmuni:

**Yanglishmas kishi kim, menga aytib ber,  
Yanglishganlar tuman mingta, senga ayta  
qolayin.**

**Bilimli(lar) juda oz, bilimsiz(lar) ko'p,  
Bezakovat(lar) talay, bilgin, zakovatli(lar)  
arzandadir. [4. 91-bet]**

Shoir kitobxonga murojaat qiladi, bu hayotda kim yanglishmagan degan savolni o'rtaga tashlaydi va barcha yanglishishi mumkinligini aytib o'tadi. Insonning yanglishishiga sabab sifatida esa bilimsizlikni asosiy mezon deb biladi. Shoirning nazdida yanglishish unchalik vahimali narsa emas, ammo eng xatarli holat bu bilimsizlik. Zakovatlining kəshysh (arzanda) bo'lishi ya'ni bitmas –tuganmas xurmat-e'tiborga sazovorligiga sabab ham uning bilimi orqalidir. Adib shu sababdan ham bilimsizlikni jamiyat zavoli deb biladi.

Kishidə kishi adruqy bar telim ,

Bu adruq biligidin ayur bu tilim.

Mazmuni:

Kishidan kishining ko'p farqi bor,

Bu farq bilimdan, deb aytadi bu tilim.

Avvalo, adib kishidan kishining juda ko'p farqi bor bo'lib, bu farqlanishlar boy yoki kambag'al, sog'lom yoki betoblikda emas. "Uning eng katta farqi bu bilim deb aytmoqda bu tilim" – deydi shoir. Bilim insonlar o'rtasidagi tafovutni ko'rsatuvchi mezondir. Shoir ham insonning bir-biridan farqi va o'zidagi nuqsonlarga bee'tiborligi hamda hayoti davomida turli kamchiliklarga yo'l ochib berishiga asosiy illat sifatida uning bilimsizligini ko'rsatadi va bilimlilarning qadri azaldan yuksak qadrlanganligini e'tirof etadi. Bu haqida hadislarida kishidagi amallarning afzali ilm orqali hosil bo'lishi ta'kidlangan. Ilmning sharafi va insonni ulug'likka yetkazishiga shubha yo'q. Inson ko'p jihatdan boshqa mavjudotlar bilan o'xshash, ammo ilm orqali farqlanadi. Ilm insonlarga dunyo va oxiratda to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi, haqiqiy foyda nima-yu, zarar nima ekanini anglatuvchi vositadir. Ilm sohibi barcha ezgu axloqlarga erishadi. U baxillik, qizg'anchilik, qo'rqqoq va jur'atsizlik, manmanlik kabi yomon illatlardan o'zini saqlab,



kishilar koʻrganlarida suhbatiga oshiqadigan goʻzal xulq egasi boʻlib kamol topadi:

Ajunqa apa inmishində bery,  
Uqushlugʻ uru keldi edgy tərü.  
Qayu ədtə ersə bu kyndə burun,  
Biligligkə tegdi bedygrək orun.

Mazmuni:

Olamga odam tushgandan [yaʼni odam yaratilgandan] buyon,

Zakovatli(lar) ezgu siyosat yuritib keldi(lar).

Bugundan burungi qaysi bir davrda boʻlmasin, Bilimli(lar)ga buyukroq oʻrin nasib boʻlib keldi.

Shoir Alloh tomonidan Odam Ato yaratilgandan buyon qaysi davrda boʻlmasin zakovatlilarning ezgu siyosat yuritib kelganligini, bilimlilarning oʻrni esa doimo buyuk ekanligiga urgʻu beradi.

Shoir bilimsizlikni dard deb biladi:

Biligsiz kishi barcha iglig bolur  
Ilgig emləməsə kishi terk əlyr.  
Yury ey biligsiz igiñni ota,  
Biligsiz otym-sen e bilgə quta.

Mazmuni

**Bilimsiz kishilar barchasi dardlik boʻladi,  
Dardni davolamasa, kishi bot oʻladi.  
Kel, ey bilimsiz, dardingga davo qil,  
Bilimsiz (boʻlsang) – tubansan, dono  
(boʻlsang) – baxtlisan**

Zakovatli va bilimli odam agar vujudida biror bir kasallik alomatlarini sezsa, zudlik bilan bu dardga davo izlaydi va tuzalishiga yordam beradigan shifokorga murojaat qiladi. Ikkisi bir boʻlib tanadagi dardni turli dorilar bilan tuzatishga harakat qilishadi. Inson tanasida harakatlanayotgan kasallik kabi jamiyat hayotida ham turli dardlar borki, ularni tuzatmasdan turib adolatli va farovon davlat qurib boʻlmaydi. Buning uchun esa jamiyatning bir boʻlagi sanalgan inson eng avvalo oʻzidagi nuqson va kamchiliklardan holi boʻlmogʻi lozim. Yusuf Xos Hojib ham oʻzining “Qutadgʻu bilig” asarida insoniy nuqson va kamchiliklarga eʼtibor qaratar ekan shu nuqsonlardan insonni butkul forigʻ boʻlishini xohlaydi va bu orqali jamiyatni forovonlikka yetaklaydi, bunga yechim izlaydi. Asarda insonning bezagi va maʼnaviy boyligi boʻlgan insoniy fazilatlar: zakovat, til odobi, saxovat, sabr, qanoat, shukr, tavba, silayi rahm kabilarninig inson tarbiyasidagi oʻrni va oʻz navbatida insoniy nuqsonlar: bilimsizlik, gʻazab, nafs, yolgʻonchilik, xasislik kabi illatlardan

qanday halos boʻlmoq lozimligi xususida fikr yuritilgan.

Bilim olishga intilish insonni jamiyatda yuksaklik sari yetaklasa, bilimsizlik uni yomonliklar komiga, tubanlik makoniga va jamiki illatlar uya qurgan jarlikka yiqitadi. Ilm olishning eng muhim jihati shundaki, ilm olishga saʼy-harakat qilgan kishi bu dunyoda xurmat, obroʻ-eʼtibor va yuksak martabaga erishish bilan birgalikda Alloh oldida ham izzatli bandalari qatorida boʻladi. Jumladan “Qurʻoni Karim” da: “Alloh sizlardan iymon keltirganlarni, xususan, ilm berilganlarni darajalarga koʻtarur” (Mujodala surasi, 11-oyat) deya marhamat qilingani bejiz emas.

Bilim olishga chorlov Sharq allomalarining barcha asarlarida kuzatiladi. Chunki ilm olish insonni komillik sari yetaklaydi. Bilim olish haqida adib Ahmad Yugnakiyning quyidagi fikrlari ham ibratlidir:

**Suyak — ilig-u er — bilim bilan, bil,**

**Suyak koʻrki — ilik, er koʻrki — aql.**

**Bilimsiz iliksiz suyakday boʻm -boʻsh,**

**Iliksiz suyakka uzatilmas qoʻl. [1. 17-bet]**

Ilm oʻrganish uchun qanchadan-qancha zahmatlar chekib maqsad muddaosiga erishgan va oʻrganganlarini oʻzgalarga ham oʻrgatib atrofdegilarga manfaat yetkazgan kishi bilan bilimsizlikning zulmatli olamida adashib oʻziga ham oʻzgalarga ham ziyon yetkazishdan oʻzga foydasi boʻlmagan nodon oʻrtasida katta farq bor. Adib Ahmad Yugnakiy bilimni suyak ichidagi ilikka qiyos etgani ham bejiz emas. Chunki iliksiz suyakka qoʻl urilmaganidek, bilimsiz kishilar ham jamiyat uchun chaqalik qadrga ega emas. Bilim olishning yana bir foydali jihati shundaki, ne mashaqqatlar bilan toʻplangan boylik, mol-dunyo sarflangan sari kamayib boradi. Toʻplangan bilim esa oʻzgalarga ulashsangiz ziyoda boʻlib borayveradi, ammo ozaymaydi. Ilm oʻrganish Islom dinida ham eng maqbul amallardan biri sanalgan. Hususan, Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Kim ilm talab qilish yoʻliga tushsa, Alloh unga jannatning yoʻlini yengillashtiradi», dedilar» (Muslim, Abu Dovud va Termiziy rivoyati).

Uqush birlə eslyr kishi artaqy

Bilig birlə syzlyr budun bulgʻaqy

Bu ekin etyməsə qodgʻyl bilig

Qylychqa tegyrgil sen etry əlig

Bəgy bilgə beglər budunqa bashy

Qylych birlə etmish biligsiz ishi

Mazmuni:

Kishi(lar) buzuqligi zakovat bilan tozalanadi,  
Xalq bulg'og'ini bilim bilan suziladi.

Bu ikkisi bilan ish bitira olmasang, bilimni  
qo'ygin,

So'ng sen qilichga qo'l tegizgin [ya'ni qilichni  
ishga solgin].

Xalqqa bosh dono (va) bilimdon beglar,  
Bilimsizlar ishini qilich yordamida hal qilganlar.  
Yusuf Xos Hojib bilimni endi budun bulg'aqy  
(kishilarning barcha buzuqliklari), yomon  
fe'llaridan tozalovchi vositaga qiyos etmoqda.  
Agar insonni bilim va zakovat bilan to'g'ri yo'lga  
solishning imkoni topilmasa, ya'ni nodon to'g'ri  
yo'lga kirishni xohlamasa unda qat'iy choralarni  
qo'llash kerak. Dono va tadbirli beklar bunday  
vaqtda qilich yordamida hal qilganlar. Xususan,  
Abu Ali ibn Sino ham eng avvalo kamolotga  
erishishning birinchi mezoni sifatida ma'rifatni  
egallashga da'vat etadi. "Zero, ma'rifatli kishi  
jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat  
haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi,  
deydi Ibn Sino. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi,  
ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk  
bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday  
kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini  
ta'kidlaydi". [5. 47-bet ]

**Xulosa.** Adabiyotning asl maqsadi insoniylikni  
tarannum etish va o'quvchiga uning qanday  
tuyg'u ekanligini uqtirishdan iborat. Insoniylik  
tuyg'usi atrofda gilariga hamdardlik, yaxshi yomon  
kunda ham qo'ldan kelgancha moddiy yoki  
ma'naviy jihatdan ko'maklashishdan iborat. Shu  
sababdan diniy yoki dunyoviy adabiyotlarning  
asosiy mezoni shu mavzuga qaratiladi. Yusuf Xos  
Hojib ham yaxshilik va yomonlikni, ularni yuzaga  
keltiruvchi natijalarni o'zaro qarshilantiradi. Bu  
orqali esa kitobxonni o'ziga kerakli bo'lgan xulosani  
chiqarib olishga chorlaydi. Dostonning yana bir  
o'ziga xos jihati yaxshilikni tarannum etgani va  
qahramonlar nutqida ham ulug'langanidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### RO'YXATI:

1. Adib Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. (Sh  
e'riy tabdilni amalga oshiruvchi, so'zboshi va  
izohlar muallifi: E.Ochilov). - T.: "S harq", 2013.
2. B. Tuxliev .Yusuf Xos Hojibning badiiy  
ma'horati. 41
3. Yusuf Xos Hojib. "Qutadgu biling"  
("Saodatga boshlovchi bilim"). Hozirgi uzbek  
tilida baen qiluvchi va suzboishi muallifi  
Boqijon Tuxliev; - T.: Yulduzcha, 1989.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadgu biling.  
Transkripsiya va hozirgi uzbek tiliga

тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов.  
– Тошкент: Фан, 1972.

5. Ирисов А. Абу Али ибн Синонинг фалсафий  
қарашлари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1994.